

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA AMERIKA QO‘SHMA SHTATLARI
O‘RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALARNING SHAKLLANISHI,
RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA STRATEGIK ISTIQBOLLARI**

Sevinch Ko‘chimova Keldibek qizi

Samarqand davlat chet tillari insituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi va Amerika Qo‘shma Shtatlari o‘rtasidagi diplomatik aloqalarning shakllanishi va rivojlanish jarayoni yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan bu xalqaro aloqalarning asos solinishi hamda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligidagi Yangi O‘zbekiston davrida ikki davlat o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, ta‘lim, tibbiyot va xavfsizlik sohalaridagi hamkorlik masalalari tahlil qilingan. Maqolada O‘zbekiston tashqi siyosatining yangilangan yo‘nalishlari, Amerika Qo‘shma Shtatlari bilan hamkorlikning bugungi holati va kelajakdagi istiqbollari haqida umumiy tahliliy ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, Amerika Qo‘shma Shtatlari, diplomatik aloqalar, rivojlanish tendensiyalari, strategik istiqbollari, tashqi siyosat.

Abstract: This article highlights the formation and development process of diplomatic relations between the Republic of Uzbekistan and the United States of America. It also analyzes the establishment of these relations by the First President of Uzbekistan, Islam Karimov, as well as the expansion of cooperation in political, economic, educational, medical, and security spheres during the “New Uzbekistan” era under President Shavkat Mirziyoyev. The article provides an analytical overview of Uzbekistan’s renewed foreign policy, the current state of cooperation with the United States, and its strategic prospects.

Keywords: Uzbekistan, United States of America, diplomatic relations, development trends, strategic prospects, foreign policy.

Аннотация: В данной статье освещается процесс формирования и развития дипломатических отношений между Республикой Узбекистан и Соединёнными Штатами Америки. Также рассматривается вклад Первого Президента Ислама Каримова в установление этих отношений и развитие сотрудничества в политической, экономической, образовательной, медицинской и сфере безопасности в период «Нового Узбекистана» под руководством Президента Шавката Мирзиёева. В статье представлена аналитическая информация о современном состоянии и стратегических перспективах сотрудничества Узбекистана с Соединёнными Штатами Америки.

Ключевые слова: *Узбекистан, Соединённые Штаты Америки, дипломатические отношения, тенденции развития, стратегические перспективы, внешняя политика.*

Кирish. O‘zbekiston Respublikasi va Amerika Qo‘shma Shtatlari o‘rtasidagi diplomatik aloqalar 1992-yilda rasmiy tarzda o‘rnatilgan. Dastlab hamkorlik siyosiy va iqtisodiy yo‘nalishlarda yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, keyinchalik ta‘lim, ilm-fan, xavfsizlik, madaniyat va tibbiyot kabi sohalarda ham kengayib bordi. Shu jarayonda turli qo‘shma loyihalar amalga oshirildi, bitimlar imzolandi va ikki tomonlama munosabatlar mustahkam asosga ega bo‘ldi.

Bugungi kunda O‘zbekiston va Amerika Qo‘shma Shtatlari o‘rtasidagi xalqaro aloqalar izchil rivojlanib, ko‘plab yangi kelishuvlar tuzilmoqda. Shuningdek, bu diplomatik aloqalar madaniy va ilmiy hamkorlikni kengaytirib, ikki davlat xalqlari o‘rtasidagi o‘zaro tushunishni yanada chuqurlashtirmoqda.

Asosiy qism

1. O‘zbekiston va Amerika Qo‘shma Shtatlari o‘rtasidagi diplomatik aloqalarning shakllanishi. 1991-yilda O‘zbekiston mustaqil respublika deb e‘lon qilingach, birinchi Prezident Islom Abdug‘aniyevich Karimov tashqi siyosatni shakllantirishda mustaqil yo‘l tutib, xalqaro maydonda mamlakat manfaatlarini himoya qilishga intildi. Shu maqsadda 1992-yil 19-fevralda O‘zbekiston va Amerika Qo‘shma Shtatlari o‘rtasida rasmiy diplomatik aloqalar o‘rnatildi.

1996-yil iyun oyida Islom Karimovning Amerika Qo‘shma Shtatlariga qilgan rasmiy tashrifi ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlashda muhim bosqich bo‘ldi. Ushbu tashrif chog‘ida Buxoro viloyatidagi gaz konlarini rivojlantirish, surkov materiallari ishlab chiqaruvchi qo‘shma korxonalar tashkil etish va qishloq xo‘jaligi korxonalariga lizing xizmatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi.

2. Diplomatik aloqalarning rivojlanish tendensiyalari

1999-yilda O‘zbekiston va Amerika Qo‘shma Shtatlari o‘rtasidagi tovar aylanmasi 282 million dollarni tashkil etdi. O‘zbekiston Amerika Qo‘shma Shtatlaridan bug‘doy, asbob-uskunalar va xalq iste‘moli mahsulotlarini import qiladi, eksport esa asosan paxta tolasi va oltin mahsulotlariga to‘g‘ri keladi.

Shuningdek, O‘zbekistonda bir qator qo‘shma loyihalar amalga oshirildi. Ulardan eng yiriklari — “Newmont Mining” kompaniyasi tomonidan Zarafshon shahrida oltin rudasini qazib olish, “International Telset Inc.” tomonidan Toshkentda kabel televideniyesi tarmog‘ini tashkil etish va “Zarafshon-Newmont” qo‘shma korxonasining Qizilqum cho‘lida zamonaviy ishlab chiqarish obyektlarini barpo etish loyihalaridir.

Bu loyihalar ikki davlat o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlab, O‘zbekistonning xalqaro maydondagi iqtisodiy nufuzini oshirishga xizmat qildi.

3. Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O‘zbekiston va Amerika Qo‘shma Shtatlari o‘rtasidagi hamkorlikning rivojlanishi va strategik istiqbollari

Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O‘zbekiston va Amerika Qo‘shma Shtatlari o‘rtasidagi diplomatik aloqalar yangi bosqichga ko‘tarildi. 2023-yil sentyabr oyida BMT Bosh Assambleyasi doirasida Shavkat Mirziyoyev va Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti o‘rtasida uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Uchrashuvda siyosiy, iqtisodiy, xavfsizlik va texnologik hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

2024-yilda ikki davlat o‘rtasidagi tovar aylanmasi 882 million dollarni tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2023-yilga nisbatan 15 foizga o‘sdi. O‘zbekistonning Amerika Qo‘shma Shtatlariga eksport hajmi esa 317 million dollarga yetib, ikki baravar oshgan. Shuningdek, 50 dan ortiq yirik kompaniya va bank rahbarlari bilan uchrashuvlar o‘tkazilib, aviatsiya, tog‘-kon, moliya, energetika, texnologiya va innovatsiyalar sohalarida qo‘shma loyihalar ishlab chiqildi. Bu hamkorlik O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyalarni jalb etish, yangi texnologiyalarni joriy etish va mamlakatning xalqaro nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa. O‘zbekiston Respublikasi va Amerika Qo‘shma Shtatlari o‘rtasidagi diplomatik aloqalar ikki davlat uchun ham siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Amerika Qo‘shma Shtatlarida o‘zbek diasporasining yildan yilga ortib borishi, ularning mamlakatda faoliyat yuritishlari va O‘zbekistonning turli sohalariga amerikalik mutaxassislar, olimlar, o‘qituvchilarning tashrifi bu aloqalarning mustahkam va do‘stona tus olganidan dalolat beradi. Yaqin kelajakda bu hamkorlik yanada kengayib, ikki mamlakat o‘rtasidagi strategik sheriklik darajasiga ko‘tarilishi kutilmoqda. O‘zbekistonning Yangi tashqi siyosati, ochiqlik siyosati va xalqaro integratsiyaga intilishi natijasida, Amerika Qo‘shma Shtatlari bilan bo‘lgan munosabatlar yanada samarali shaklda rivojlanib borishiga ishonch bildiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1997.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021.
3. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi rasmiy sayti – <https://mfa.uz>
4. Amerika Qo‘shma Shtatlarining O‘zbekistondagi elchixonasi rasmiy sayti – <https://uz.usembassy.gov>
5. “O‘zbekiston va AQSh o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik yangi bosqichda” – Xalq so‘zi, 2024-yil, 17-sentabr.
6. World Bank Data: Uzbekistan–United States Trade Relations Report, 2024.